

ISLOMDA OILA QURISHNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Soyibjonova Gulyora Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

soyibjonovagulyora@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom dinida nikohning ahamiyati, erkak va ayolning oila qurishdagi o'rni va mas'uliyati, shuningdek, halol-pok hayot tarzining jamiyat barqarorligiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Qur'on oyatlari va hadislar asosida musulmonlar uchun oilaviy hayotning muhim jihatlari yoritiladi. Maqolada ajrimlarning asosiy sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun diniy ta'limotlarga amal qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Islom, nikoh, oila, erkak, ayol, shariat, Qur'on, hadis, mas'uliyat, halollik.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение брака в исламе, роль и ответственность мужчины и женщины в создании семьи, а также влияние честной и чистой жизни на стабильность общества. На основе аятов Корана и хадисов раскрываются важные аспекты семейной жизни для мусульман. Анализируются основные причины разводов и подчёркивается необходимость следовать религиозным наставлениям для их предотвращения..

Ключевые слова: Ислам, брак, семья, мужчина, женщина, шариат, Коран, хадис, ответственность, честность.

Annotation. This article discusses the significance of marriage in Islam, the roles and responsibilities of men and women in family life, and the impact of a lawful and pure lifestyle on societal stability. Based on Quranic verses and Hadiths, it highlights essential aspects of family life for Muslims. The article also analyses the main causes of divorce and emphasizes the importance of adhering to religious teachings to prevent them.

Key words: Islam, marriage, family, man, woman, Sharia, Quran, Hadith, responsibility, purity.

Oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, faravon bo'ladi.

Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga kata e’tibor berib kelgan va oilalarning mustahkam va baxtiyor bo’lishi uchun bor imkoniyatlarni va tadbirlarni qilishgan.

Islom shariati, umuman, yengillik ustiga bino qilingandir. Bu haqida ko’plab oyat va hadislar bor. Shular qatorida “oila” tushunchasiga ham yetarlicha ma’lumotlar berilgan. Butun dunyo oila muammosini hal qilish borasida ulkan tashvishlar qarshisida ularni hal qilish uchun turli chora-tadbirlar ko’rib, nima qilishni bilmay, bosh qotirayotgan bir vaqtda, Islomda oila tizimi bo’yicha boshqalar havas qiladigan mezonlar mavjuddir. Undagi oila tizimidan biroz bo’lsa-da xabardor bo’lgan ba’zi kishilar o’z qavmlarini bu borada musulmonlardan o’rnak olishga chaqirmoqdalar ham.

Islom dini oila qurishning inson hayotining eng muhim qadami sifatida ta’riflaydi va nikohga targ’ib qiladi. Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday deb marhamat qiladi:

“Oralaringizdan nikohsizlarni va qul-u cho’rilaringizdan solihlarini nikohlab qo’ying. Agar faqir bo’lsalar, Alloh ularni O’z fazlidan boy qilur. Alloh qamrovi keng, biluvchi Zotdir” (Nur surasi, 32-oyat).

Nikoh – davomli bir sunnat va payg’ambarlarning axloqidan go’zal bir axloqdir. Shundan ham Islom dinida oila qurish mohiyati va ahamiyatini bilib olishlik mumkin.

Oila haqida so’z yuritar ekanmiz, avvalambor, nima uchun inson erkak va ayol qilib, juft qilib yaratildi, degan savolga javob olishimiz maqsadga muvofiqdir. Qur’oni Karim oyatalarida inson zotining juft qilib – erkak va ayol qilib yaratilishidagi hikmatlar bayon qilinadi. Alloh taolo Rum surasida bunday deb marhamat qiladi:

“Va Uning oyat-belgilaridan sizlarga sokinlik topishingiz uchun o’zingizdan juftlar yaratganligi va oralaringizda mehr-u muhabbat va marhamatni solib qo’yganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat-belgilar bordir” (21-oyat).

Alloh taolo insonning o’zidan unga juft yaratib berishining hikmatini bayon qilib: “sookinlik topishingiz uchun”, demoqda. Ma’lumki, erkak faqat ayolidangina sokinlik, orom va tinchlik topadi. Shu bilan birga, ayol ham o’ziga kerakli huzur-halovat, osoyishtalik va sokinlikni erkakdan topadi. Bundan tashqari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarida nikohga targ’ib juda kuchli tarzda kelgan. Buni quyidagi hadis orqali anglab yetishimiz mumkin.

Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Ey yoshlar jamoasi, sizdan kim nikohga qodir bo’lsa, uylansin. Chunki u ko’zni to’suvchi va farjni saqlovchidir. Kim qodir bo’lmasa, ro’zani lozim tutsin, bu uning uchun bichilishdir”, deganlarini eshitdim”. Beshovlari rivoyat qilgan.

Ushbu hadisi sharifdan ko’rinib turibdiki, moddiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan nikohga qodir bo’lgan har bir musulmon uyli-joyli, oilali bo’lishga harakat qilmog’i lozim. Agar nihokga moddiy yoki ma’naviy jihatdan qudrati yetmagan, yoki uylansa, umr yo’ldoshiga zulm qilishdan o’zini to’xtata olmaydigan yoshlar bo’lsa, ular ro’za tutishlari kerak. Chunki ro’za tufayli kishining shahvati pasayib, boshqa jinsdagilarga shahvat bilan qaramaydigan, farjini zinoga ishlatmaydigan holga keladi.

Oddiy holatlarda esa bu ikki xavfni oldini nihok oladi. Lekin shuni ham unutmash kerakki, oila qurishlik uchun munosib kelin, munosib kuyov tanlanmog’i kerak. Munosib kelin va munosib kuyov topildi deylik, oila qurishlik oson, biroq oiladagi majburiyatlarni bajarmoqlik mushkuldir. Shukrlar bo’lsinki, bu borada ham Islom dini o’z mezonlariga ega.

Islom dinida har kim o’z istagi ila nikohlanadi. Bu borada Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bir qancha hadisi shariflari kelgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Maslahat so’ralmaguncha, juvon nikohlanmas. Izn olinmaguncha, bokira nikohlanmas”, deganlar.

“Ey Allohning Rasuli, uning izni qanday bo’ladi?”, deyishdi.

“Sukut saqlamog’i”, dedilar”.

Beshovlari rivoyat qilganlar.

Boshqa bir rivoyatda:

“Juvon o’z nafsiga valiysidan xaqliroqdir. Bokiradan esa izn so’raladi. Uning izni – sukutidir”, deyilgan”.

Bu hadisi sharifda nikoh masalasida qiz va ayollarning roziligi shart ekani, sovchi kelganda, otalar, akalar va boshqalar o’zlaricha javob bermay, ular bilan maslahat qilib, roziliklarini olishlari bayon qilinmoqda.

Oila qurish niyatidagi erkak munosib kelin axtarishga kirishadi. Hadisi shariflardan kelinlikka nomzodning quyidagi sifatlariga e’tibor berishlik tavsiya qilinadi:

1. Dindonlik.

2. Serfarzandlik.

3. Avval turmush qurmagan bo'lishi.

4. Dindor va qanoatli oiladan bo'lishi.

5. Nasabi yaxshi bo'lishi.

6. Husnli bo'lishi.

7. Qarindoshlardan bo'lmasligi.

8. Bir xotindan ziyoda qilmaslik. Chunki ko'pxotinlikning mashmashasi ham ko'p bo'ladi, shartlarini bajo qilish ham oson emas.

Oila qurishda kuyov taraf kelin tanlash huquqiga ega bo'lgani kabi kelin taraf ham kuyov tanlash huquqiga egadir. Munosib kuyov tanlash borasida barcha dalil va hujjatlarni jamlab, ulamolarimiz, asosan, quyidagi sifatlarga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydilar:

1. Dindorlik.

2. Taqvodorlik.

3. Husni xulq.

4. Oila mas'uliyatini ado etish qobiliyati.

5. Kelinning tengi bo'lishi. Bunda yoshi, ijtimoiy holati va shunga o'xshash narsalar ko'zda tutilgan.

Munosib kuyov va munosib kelin tanlandi deylik, endi navbat nikohlanishga. Bu bo'yicha ham shariatning hukmlari mavjuddir. Shar'iy nikohning to'g'ri bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Iyjob va qabul

“Iyjob” – aqdi nihokda ishtirok etadigan ikki tomonning biridan shu masalada rag'bat sodir bo'lganini anglatadigan narsa, “qabul” esa ikkinchi tomondan ana shu rag'batni qabul qilganini bildirish uchun sodir bo'lgan narsadir.

2. Iyjob va qabulda ishlatiladigan iboralar abadiylikni ifoda qilishi shart.

3. Kelin-kuyov bir-birlarining iyjob va qabul haqidagi lafzlarini eshitishlari shart.

4. Valiy bo'lishi

Odatda, ota yoki uning o'rniga qolgan shaxs valiy bo'ladi. Valiy nikohda o'zining o'rniga vakil tayin qilishi joizdir.

5. Ikki adolatli guvoh

Iyjob va qabulsiz nikoh bo'lmaganidek, kamida ikki er kishi yoki bir er va ikki ayol kishi guvohisiz ham nikoh bo'lmaydi.

Jamiyat oilalarning majmui bo‘lganligi sababli jamiyat hayotining ravnaqi, darajasi, sifati ko‘p hollarda oilaning qay darajada hayotga qobilligida namayon bo‘ladi. Jamiyatning ahvoli va oilaning holi bir-biriga chambarchas bog‘liq ekan, jamiyat ravnaqi uchun oilalarimiz ravnaq topishi kerak. Oila ravnaq topishi uchun esa er-xotin o‘z vazifa, burchlarini bilmoqliklari va ularga amal qilib yashamoqliklari lozim. Bu borada ko‘plab maqolalar yozilgan, shulardan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Risoladagi er” va “Risoladagi xotin” maqolalaridan parcha keltirishlikni lozim ko‘rdik.

“Ma’lumki, har bir jamiyatning rahbari bo‘ladi. Rahbari bo‘lmagan jamiyatning jamiyatligi qolmaydi. Oila ham bir kichik jamiyat. Unda jamiyatning barcha belgilari kichkina ko‘rinishda mavjud. Oila hayotida boshliq vazifasini er ado etishi kerakligini hozirgi kunda barcha xalqlar bir ovozdan tasdiqlaydilar.

Islomda erning oiladagi bu rahbarligiga “mas’uliyat” deb qaraladi. Lekin oila boshlig‘i degani ba’zilar hayol qilganidek, oilaning boshqa a’zolariga jabr-zulm o‘tkazish, “deganim degan” yo’sinida “hokimi mutlaq” bo‘lish emas. Oila boshlig‘i sifatida, uning hamma tarafdin barkamol, saodatli, tinch-omon bo‘lishiga er mas’uldir.

Hadisi sharifda aytilganidek: “Barchangiz rahbarsiz va barchangiz o‘z qo‘l ostidagilarga mas’uldir”.

Erning oiladagi vazifalaridan yana bir eng muhimi – xotinning haqlarini to‘la ado qilishdir. Xotinning erdagi haqqi esa anchagina. Shulardan biri uni doim yetarli rizq-ro‘z bilan ta’minlashdir. Bu ish erning kundalik vazifasi bo‘lishi bilan birga, ma’naviy jihatdan eng xayrli va qoni savob ishlar qatoriga kiradi.

Imom Ahmad ibn Hanbal rivoyat qilgan hadisda: “... va xotiningning taomingdan yegani ham sadaqadir va ahlinga qilgan nafaqang ham sadaqadir...”, deyilgan.”

“Risoladagi xotin o‘z erining yaxshi fazilatlarini topib, ularni rivojlantirishga harakat qiladi. Erini mas’uliyatli ishlarni amalga oshirishga chorlaydi, u bilan umidvorlik va muvaffaqiyatli ishlar haqida suhbat olib boradi. Chunki xotinning chorlovi har qanday chorlovdan ustun turadi. Erning jamiyatda qoldiradigan ta’siri, xotinning unda qoldirgan ta’sirining aksidir, buni hech qachon unutmaslik lozim.

Agar xotin o‘z eriga qobiliyatli, shijoatli, muvaffaqiyatli, mo‘min, sadoqatli shaxs deb muomala qilsa, er xuddi shunday bo‘ladi, inshaalloh.

Shu bilan birga, eridan o‘zi bilmagan narsalarni o‘rganadi, tajribalaridan foydalanadi.

Hayotdagi eng go‘zal fazilat qanoatdir. Risoladagi xotin o‘zini fazilat bilan ziynatlamog‘I darkor. Turli hoy-havas, zeb-ziynat talab qilib, erni qiyin ahvolga solish yaxshi emas. Hozirgi kunimizdagi oilaviy kelishmovchiliklar yoki erlar tomonidan haromdan mol topishga urinishlarning ba‘zilari xotinlarning qanoatsizligidan kelib chiqayotganligi hech kimga sir emas. Qanoat – bu o‘jizlik emas, kamchilik ham emas, balki, qanoat yuksak insoniy sifat bo‘lib, o‘z egasini doimo yuksaklarga ko‘taradi. Buni hech qachon unutmaslik lozim. Biz har qancha fahrlansak, arziydigan momolarimiz qanoatda hammaga o‘rnak bo‘lganlar, dars berganlar.”

Oilaviy hayot er-xotin orasidagi sheriklik hayoti ekanligini yuqorida keltirgan maqolalar orqali ham anglab olishlik mumkin. Shariatimizda “Er kim, uning qanday majburiyatlari bor?”, “Xotin kim, uning qanday va qancha majburiyatlari bor?”, “Ikkiyklarini huquqlari qanday-u bir-birlariga qanday munosabat qilishlari kerak?” kabi savollarga javob berilgan. Har bir musulmon er va ayol ushbu ta’limotlarni jonu dili bilan yaxshilab o‘rganishi, qabul qilishi va ularga ixlos bilan amal qilishi kerak. Shu bilan birga, bu ta’limotlar o‘zi va oilasi uchun saodat manbasi ekanini anglab yetishi lozim.

Er-xotin orasida mushtarak huquqlar mavjud bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Er-xotinning o‘zaro yaxshilik bilan yashamoqlari.
2. Er-xotinlik hayoti halol bo‘lishi, har ikki taraf bir-biridan lazzat va orom topishi.
3. Quda-andalik hurmatlari joriy qilinadi.
4. Er-xotin bir-birlariga merosxo‘r bo‘ladilar.
5. Ulardan farzand tug‘ilsa, nasab sobit bo‘ladi.
6. Er-xotinlik sirlarini fosh qilmaslik.
7. Ota-onalarga yaxshilik va qarindoshlarga silai rahm qilish.

Ushbu turdagi haqlar erga ham, xotinga ham bir tarafdan haq bo‘lsa, ikkinchi tarafdan majburiyat hisoblanadi. Ikki taraf ham mazkur haqdan bahramand bo‘lish bilan birga, xuddi o‘sha narsani umr yo‘ldoshining haqqi sifatida ado etishi ham zarurdir.

Alloh taolo inson zotini juft qilib, erkak va ayoldan iborat qilib yaratganda ularning har biriga o'ziga xos xususiyatlarni berdi va ularning nihok orqali halol-pok yashab, o'zlaridan zurriyotlar qoldirishlarini hamda ayni shu yo'l bilan dunyoning obod bo'lishini va odam sulolasini Qiyomatgacha halol-pok yo'l bilan davom etib borishini irodsa qildi. Bu borada Qur'oni Karim oyatlari va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislarini orqali ko'rsatmalar berilgan. Mustahkam, tinch-totuv oila barpo qilmoqlik uchun bu ko'rsatmalarni o'rganish va ularga amal qilishlik har bir musulmonning vazifasidir. Negaki, jamiyatdagi oilalarning ajrimlariga asosiy sabab ham shariat ta'limotlarini bilmaslik, yoki bilsa-da yengil qarab, amal qilmaslik bo'ladi. Erkak va ayol o'z oilasida halol yashash o'rniga harom ishlar sari og'ishligi ham Islom ta'limotlaridan yiroqlik natijasidir. Islom shariatida Alloh taolo O'z bandalariga yengillikni istagan va ularga oila qurib, halol-pok yashashni amr qilgan. Shunday ekan, har bir musulmon erkak va ayol o'z burchlarini chuqur bilishi va ularga rioya qilib yashashga harakat qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Baxtiyor oila".
3. Imoduddin Ismoil Ibn Kasir. "Tafsiri Qur'oni Azim". Dor ihyail kutubil arabiyya.
4. Muhammad Ali as-Sobuniy. "Rovai'ul Bayon tafsiri Ayatil Ahkam minal Qur'on". Dor ihyatil-turosil arabiy. Bayrut.
5. Muhammad Ali as-Sayis. "Tafsiri Ayatil Ahkom". Matba'atu Muhammad Ali Subayh.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". "Sharq" nashriyoti, Toshkent. 2012.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Hadis va Hayot".
8. Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy. "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.
9. Shayx Muhammad Abu Zahra. "Al-ahvol ash-shaxsiyya". Al-Fikrul Arabiy. 1950 m.s. 1369 h.s. 2-nashr.
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Risoladagi er". "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" nashriyoti. 1990.
11. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Risoladagi xotin". "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" nashriyoti. 1990.